


# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

**6/2024**



**6/2024**



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2024, № 6, iyun**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyorova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbanovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
<b>MATEMATIKA *** MATHEMATICS *** МАТЕМАТИКА</b>		
<b>Xayitova X.G.</b>	Funksiya hosilasining tatbiqlari	3
<b>Atoev D.D.</b>	Solvability of an integro differential heat equation with nonlocal initial – boundary condition	7
<b>Merajova Sh.B., Sultanova D.X., Ahmadov X.Sh. Merajov N.I.</b>	Kasr tartibli hosila va uning ba'zi bir tatbiqlari	13
<b>Tog'aynazarov S.O.</b>	O'zgarmas koeffitsiyentli chiziqli bir jinsli differensial tenglamalarni yechish jarayonida aktdan foydalanish	18
<b>Tulakova Z.R.</b>	Boundary value problems of dirichlet-neumann type for the three-dimensional elliptic equation with two singular coefficients	23
<b>Аббасова М.О.</b>	Краевые задачи для уравнения лапласа в частях трехмерного шара	29
<b>Арзикулов З.О.</b>	Задача неймана для многомерного сингулярного уравнения гельмгольца в бесконечных областях	38
<b>Бегматов А.Х., Исмоилов А.С.</b>	Задача восстановления функции по семействам сфер в трехмерном пространстве	45
<b>Отакулов С., Хайдаров Т.Т.</b>	Задача оптимального быстродействия для параметризованной модели системы управления в условиях неопределенности	51
<b>Юлдошев Н.Н., Жувонов К.Р.</b>	Построение общего вида уравнения разветвления, допускающего группу $SO(3)$	59
<b>Latipov H.M., Norqulova G.O.</b>	Torda aniqlangan $L$ –juft va $L$ –toq funksiyalar	66
<b>Adilov B.B.</b>	Monoton ketma-ketliklar va ularning limiti tushunchasi	72
<b>Saidova N.M.</b>	Integro-differensial tenglamaga qo'yilgan koshi masalasining bir qiymatli yechimi	76
<b>FIZIKA *** PHYSICS *** ФИЗИКА</b>		
<b>Расулов В.Р., Расулов Р.Я., Насиров М.Х., Уринова К.К.</b>	Теория размерного квантования в моноатомных слоях дихалькогенидов переходных металлов	82
<b>Nurolliyev N.Sh., Tuxtoshev I.A.</b>	Rezina va plastik sterjinlarni cho'zilish deformatsiyasini tahlil qilish va o'rGANISH	89
<b>Salimov S.S.</b>	Frenel linzasi yorug'lik o'tkazuvchanligini solishtirish yo'li orqali aniqlash	94
<b>Алиев Р., Алиназорова М.</b>	Разработка полупроводникового фотоэлектрического генератора высокого напряжения	98
<b>Расулов В.Р., Расулов Р.Я., Кодиров Н.У. Исомаддинова У.М.</b>	Двухфотонное поглощение с учетом подмешивания к состояниям зоны проводимости валентных состояний	103
<b>Сайдханов Н.Ш.</b>	О дисперсионном анализе множественного образования частиц	110
<b>Abdirakhmonov U.Sh.</b>	Acoustic and acoustooptical properties of langasite crystals	115

<b>Saidov B.Y.</b>	Parchin mixli birikmalarni mustahkam hisoblash	119
<b>Mamarasulova H.D.</b>	Effect of dust deposition on the performance of photovoltaic panels	124
<b>KIMYO *** CHEMISTRY *** КИМЁ</b>		
<b>Boboqulova F.Sh., Kiyamova M.I., Sobirova R.Q.</b>	Nafatlin karbon kislotaning formalin bilan polikondensatlanishi reaksiyasi va hosil bo'lgan moddalarning xossalari	132
<b>Jo`rayev R.S., Choriyev A.U., Eshqulov B.R.</b>	1,4-fenilen bis (2-xloroatsetat) sintezi	140
<b>Maksudov O.R., Zaripov O.O., Bakhtiyorov A.N., Norkobilov A.T.</b>	Modeling of distillation column for the separation of esterification products in ethyl acetate synthesis	146
<b>Ibodullayev M.X., Norqulov J.F., Xonto`rayev S.O., Azimov R.B.</b>	Neft va gaz-kimyo sanoatida rektifikatsiya kalonnalar samaradorligini oshirish jarayonini tahlil qilish	151
<b>Мустафоев Х.М.</b>	Изучения влияния порядка реакции по мономеру в процессе полимеризации 6-бром-бомма	157
<b>BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ</b>		
<b>Yunusov R., Axmedova Sh.T.</b>	Nok daraxtini o'sishi, hosildorlik ko'rsatkichlariga zamonaviy resurs tejamkor parvarishlash omillarining ta'siri	163
<b>Сайдов М.А.</b>	Картошка навларини экиш муддатларининг ўсиш ва ҳосилдорликка таъсирни	168
<b>Хожиев С.С., Ҳамитова Д.М.</b>	Шафтоли пайвандтагларини ярим ёғочлашган яшил қаламчасидан интенсив технологияда кўпайтириш ва иқтисодий самарадорлиги	172
<b>Ashurov M.M., Jo`rayev R.S., Eshqulov B.R.</b>	Parranda go'shtini qayta ishslash chiqindilaridan oziq-ovqat kislotalari yordamida jelatin olish va sifatini tekshirish	176
<b>Sobirjonova G.S.</b>	Qurilish materiallaridan uchuvchi organik birikmalarni mikroorganizmlar ta'sirida hosil bo'lishi va uning inson salomatligiga ta'siri	181
<b>Фарходов С.У., Усмонов Ф.С.</b>	Совершенствование автоматизации процессов сушки зерна	187
<b>Ганиева Ф.А.</b>	Продуктивность яблони в зависимости от сорта, подвоя и плотности посадки при рациональной использовании ресурсов	193
<b>Bo'riyeva D.I., Yaxshimurodova F.</b>	Buxoro vohasida tarqalgan dorivor o'simliklar va ularning ahamiyati	197
<b>Yunusov R., Mavlonov Z.Sh.</b>	Subtropik o'simliklar navlarini tashqi muhit omillariga munosabati, tarqalishi, rivojlanishi va hosildorligi	202
<b>INFORMATIKA *** INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА</b>		
<b>Yusupov X.N., Shodiyeva Xusnora Sh.</b>	Multisim dasturida maydoniy tranzistorlar orqali raqamli sxemalarni sintez qilish	207
<b>To'raqulov A.S., Farxodov S.U.</b>	Arduino mikrokontrolleri pir(passiv infraqizil) sensori yordamida harakatni boshqarish	212
<b>Doliyev Sh.Q., Hayitov M.Sh., Ulashev G.N., Primov M., Turdiyev Z.N.</b>	Sarf signal o'zgartirgichlarni sozlash jarayonini sintez qilish	217

**FUNKSIYA HOSILASINING TATBIQLARI****Xayitova Xilola Gafurovna,***Buxoro davlat universiteti matematik analiz kafedrasi o‘qituvchisi  
xilola\_xayitova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada funksiya hosilasi tushunchasi hamda uning amaliy tatbiqlari bayon qilingan. Hosilaning qo‘llanishiga doir misollar keltirilgan. Shuningdek, hosilaning mexanik tavsifi yoritilgan. Ma’lumki, funksiya hosilasi tushunchasi matematik analizning dastlabki asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, hosila tushunchasiga olib keladigan masalalar jumlasiga qattiq jismni to‘g‘ri chiziqli harakatini, yuqorida vertikal holda otilgan jismning harakatini yoki dvigatel silindridagi porshen harakatini tekshirish kabi masalalarni kiritish mumkin. Bunday harakatlarni tekshirganda jismning konkret o‘lchamlarini va shaklini e’tiborga olmay, uni harakat qiluvchi moddiy nuqta shaklida tasavvur qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** Funksiya orttirmasi, argument orttirmasi, oniy tezlik, chekli limit, hosila, differensial.

**ПРИМЕНЕНИЕ ПРОИЗВОДНОЙ ФУНКЦИИ**

**Аннотация.** В данной статье описывается понятие производной функции и его практическое применение. Приведены примеры применения продукта. Также рассматривается механическое описание производной. Известно, что понятие производной функции является одним из первых основных понятий математического анализа, а к числу задач, приводящих к понятию производной, можно отнести такие задачи, как проверка прямолинейного движения твердого тела, движение предмета, брошенного вертикально вверх, или движение поршня в цилиндре двигателя. Рассматривая такие движения, мы игнорируем конкретные размеры и форму тела и представляем его как движущуюся материальную точку.

**Ключевые слова:** Сложение функции, сложение аргумента, конечный предел, производная, дифференциал.

**APPLICATIONS OF THE DERIVATIVE OF A FUNCTION**

**Annotation.** This article describes the concept of a derivative of a function and its practical application. Examples of product application are provided. The mechanical description of the derivative is also considered. It is known that the concept of a derivative of a function is one of the first basic concepts of mathematical analysis, and problems leading to the concept of a derivative include such problems as checking the rectilinear motion of a rigid body, the motion of an object thrown vertically upward, or the motion of a piston in an engine cylinder. When considering such movements, we ignore the specific size and shape of the body and imagine it as a moving material point.

**Keywords:** Addition of a function, addition of an argument, finite limit, derivative, differential.

Kub hajmi uning tomoni uzunligining funksiyasidir,  $V = x^3$ . Agar kub metalldan yasalgan bo‘lsa, kub isiganda uning tomoni uzunligi ortadi, shu bilan birga uning hajmiham ortadi. Agar kub tomoni uzunligi  $x$  qiymatga ega bo‘lgan bo‘lib, qiziganda  $h$  ga ortscha, u  $x + h$  qiymatni qabul qiladi va kub hajmi  $(x + h)^3$  ga teng bo‘ladi. Demak qiziganda kub hajmi  $(x + h)^3 - x^3$  ga ortgan. Bu ayirma kub hajmining orttirmasi deyiladi, kub tomoni uzunigi qancha ortganini ko‘rsatuvchi  $h$  son tomon uzunligining orttirmasi deyiladi. Umuman aytganda, bu orttirma so‘zi nomuvofiqdir, chunki (masalan kub soviganda) kub tomoni uzunligi qisqarishi mumkin, u holda orttirma manfiy bo‘ladi. Shuning uchun orttirma emas, o‘zgarish deb olish yaxshiroq bo‘lar edi, ammo biz an’anaviy atamadan chetga chiqmaymiz. Shunday qilib,  $x$  kattalikning yangi qiymati  $x + \Delta x$  ga teng, ya’ni uning dastlabki  $x$  qiymati bilan  $\Delta x$  orttirmasining yig‘indisiga teng. Agar  $y = f(x)$  biror funksiya bo‘lib,  $x$  argument  $\Delta x$  orttirma olsa, unda funksiya qiymati ham o‘zgaradi, natijada  $y$   $\Delta y$  orttirma oladi. Bu orttirmani hisoblash uchun:

- Argumentning dastlabki qiymatida  $y = f(x)$  funksiyaning qiymatini topish;
- Argumentning yangi qiymati  $x + \Delta x$  ni topish;
- Funksiyaning yangi qiymati  $f(x + \Delta x)$  ni topish;

d) Funksiyaning yangi qiymatidan dastlabki qiymatini ayirish, ya’ni  $f(x + \Delta x) - f(x)$  ayirmani topish kerak;

Demak,

$$\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x).$$

Agar  $x$  argumentning 4 qiymati 0,1 orttirma olgan bo‘lsa,  $y = x^2$  funksiyaning orttirmasini topamiz.  $x = 4$  da funksiya qiymati 16 ga teng orttirma olgandan keyin argument qiymati 4,1 bo‘lgan bo‘lsa, funksiyaning yangi qiymati 16,81 ga teng bo‘ldi. Demak funksiya orttirmasi 0,81 ga teng. Agar  $y = f(x)$  funksiya  $[a, b]$  kesmada o’ssa, bu kesmada  $\Delta y$  va  $\Delta x$  ning ishoralari bir xil bo‘ladi.  $x$  argumentning ortishi bilan  $y$  ham ortadi,  $x$  argumentning kamayishi bilan  $y$  ham kamayadi. Agar  $y = f(x)$  funksiya bu kesmada kamaysa, uning istalgan nuqtasida  $\Delta y$  va  $\Delta x$  ning ishoralari qarama-qarshi bo‘ladi.

Biror oraliqda aniqlangan  $y = f(x)$  funksiyaga  $x$  argumentning shu oraliqdagi har bir qiymatida  $y = f(x)$  funksiya ma’lum qiymatga ega. Argument  $x$  biror (musbat yoki manfiy)  $\Delta x$  orttirmani olsin. U vaqtida  $y$  funksiya biror  $\Delta y$  orttirmani oladi. Shunday qilib: argumentning  $x$  qiymatida  $y = f(x)$  ga, argumentning  $x + \Delta x$  qiymatida  $y + \Delta y = f(x + \Delta x)$  ga ega bo‘lamiz. Funksiyaning orttirmasi  $\Delta y$  ni topamiz:  $\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x)$ . Funksiya orttirmasining argument orttirmasiga nisbatini tuzamiz:

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}.$$

Bu nisbatning  $\Delta x \rightarrow 0$  dagi limitini topamiz. Agar bu limit mavjud bo‘lsa, u berilgan  $f(x)$  funksiyaning hosilasi deyiladi va  $f'(x)$  bilan belgilanadi. Shunday qilib, ta’rifga ko‘ra,

$$f'(x) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$$

yoki

$$f'(x) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}.$$

Demak, berilgan  $y = f(x)$  funksiyaning argument  $x$  bo‘yicha hosilasi deb, argument orttirmasi  $\Delta x$  ixtiyoriy ravishda nolga intilgan holda funksiya orttirmasi  $\Delta y$  ning argument orttirmasi  $\Delta x$  ga nisbatining limitiga aytildi. Umumiy holda  $x$  ning har bir qiymati uchun  $f'(x)$  hosila ma’lum qiymatga ega, ya’ni hosila ham  $x$  ning funksiyasi bo‘lishini ta’kidlab o’tamiz.

Biror  $M$  moddiy nuqta  $l$  to‘g’ri chiziq bo‘ylab harakat qilganda  $t$  vaqtida  $s = f(t)$  masofani bosib o‘tsin.  $s_0 = f(0)$  esa  $M$  moddiy nuqtaning  $t = 0$  boshlang‘ich vaqtdagi  $l$  to‘g’ri chiziqdagi o‘rni bo‘lsin. Ixtiyoriy  $t_0$  vaqtida uning oniy tezligi qanday bo‘ladi?

Bu savollarga javob berish uchun esa  $M$  moddiy nuqtaning ixtiyoriy  $t_0$  vaqtidan  $t_0 + \Delta t$  vaqtgacha bosib o‘rtgan  $\Delta s = |M_0 M|$  yo‘lini aniqlab olamiz:  $\Delta s = f(t_0 + \Delta t) - f(t_0)$ . So‘ng  $[t_0; t_0 + \Delta t]$  vaqt oralig‘ida erishgan o‘rtacha tezligini topish uchun  $\Delta t$  ga bo‘lib yuboramiz:

$$V_{o,r} = \frac{\Delta s}{\Delta t} = \frac{f(t_0 + \Delta t) - f(t_0)}{\Delta t}.$$

Agar  $\Delta t$  miqdor qanchalik kichik bo‘lsa, u holda bu haqiqatan ham oniy tezlikka shunchalik yaqin bo‘lgan o‘rtacha tezlikdir. Endi  $\Delta t$  ni nolga intiltirsak, u holda  $V_{o,r}$  ham  $t_0$  vaqtdagi oniy tezlik deb ataladigan tezlikni aniqlaydi:

$$V(t_0) = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} V_{o,r} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{f(t_0 + \Delta t) - f(t_0)}{\Delta t}.$$

Shunday qilib,  $V(t_0) = f'(t_0)$ .

**Misol.**  $M$  moddiy nuqta  $l$  to‘g’ri chiziq bo‘ylab  $s(t) = 2 \sin 3\pi t$  qonuniyat bilan harakat qilmoqda. Uning 10 sekundda erishgan oniy tezligi topilsin. Qachon uning oniy tezligi nolga teng bo‘ladi?

**Yechish.** Bu bo‘ylama tebranma harakatdir. Bosib o‘tilgan yo‘l funksiyanimg hosilasi  $s'(t) = 6\pi \cos 3\pi t$  berilgan nuqtaning ixtiyoriy  $t$  vaqtdagi oniy tezligidir. U holda:

$$V(10) = s'(t_0) = 6\pi \cos 30\pi = 6\pi.$$

Endi uning oniy tezligi qachon nolga teng bo‘lishini topamiz:

$$V(t) = 0 \Leftrightarrow 6\pi \cos 3\pi t = 0 \Leftrightarrow t_n = \frac{1 + 2n}{6}, n \in \mathbb{Z}.$$

Javob:  $V(10) = 6\pi \frac{m}{s}$ ,  $T = \left\{ t_n = \frac{1+2n}{6}, n \in \mathbb{Z} \right\}$ .

Ma’lumki,  $f$  funksiya  $x_0$  nuqtada hosilaga ega bo‘lsa, u holda hosila ta’rifiga binoan:

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta f(x)}{\Delta x} = f'(x_0).$$

## MATHEMATICS

Agar  $\Delta x$  juda kichik miqdor bo'lsa, u holda  $\frac{\Delta f(x_0)}{\Delta x}$  miqdor  $f'(x_0)$  dan biror  $\alpha(\Delta x)$  cheksiz kichik miqdorga farq qiladi:

$$\frac{\Delta f(x_0)}{\Delta x} = f'(x_0) + \alpha(\Delta x), \quad \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \alpha(\Delta x) = 0.$$

Shuning uchun bu yerda  $\Delta f(x_0) \approx f'(x_0)\Delta x$  taqrifiy tenglik hosil bo'ladi. Bu taqrifiy tenglikning xatoligi

$$|\Delta f(x_0) - f'(x_0)\Delta x| \leq |\Delta x| \max |\alpha(\Delta x)|, \quad (\Delta x \rightarrow 0)$$

tengsizlikni qanoatlantiradi. Demak,  $\Delta f(x_0)$  orttirmani  $f(x_0 + \Delta x) - f(x_0)$  ga almashtirib yozsak, bu taqrifiy tenglik

$$f(x_0 + \Delta x) \approx f(x_0) + f'(x_0)\Delta x$$

kabi ko'rinishda keladi.  $f$  funksiyaning  $x = x_0 + \Delta x$  nuqtadagi qiymatini kamida

$$|\Delta x| \max |\alpha(\Delta x)|$$

xatolikda aniqlash uchun shu formula ishlataladi. Masalan,  $f(x) = x^n$  funksiya uchun  $(x_0 + \Delta x)^n \approx x_0^n + nx_0^{n-1}\Delta x$  bo'ladi. Xususiy holda:  $(x_0 + \Delta x)^2 \approx x_0^2 + 2x_0 \Delta x$ ;  $(x_0 + \Delta x)^3 \approx x_0^3 + 3x_0^2 \Delta x$ ,  $(1 + \Delta x)^n \approx 1 + n\Delta x$ .

$$\text{Misol. 1)} (5,012)^2 \approx 5^2 + 2 * 5 * 0,012 = 25,12.$$

$$2) (1,02)^{10} \approx 1 + 10 * 0,02 = 1,2.$$

Keltirilgan bu formulalar  $x = x_0$  nuqtaning yetarlicha kichik atrofida o'rinli. Masalan,  $x_0 = 1$  bo'lganda  $\Delta x$  ning yetarlicha kichik qiymatlarida:

$$\ln(1 + \Delta x) \approx \Delta x, \quad \sqrt[n]{1 + \Delta x} \approx 1 + \frac{\Delta x}{n}$$

deb olish mumkin.

$y = f(x)$  funksiya biror  $[a, b]$  oraliqda aniqlangan va unda teskariluvchan bo'lsin. Yana bu funksiya shu oraliqda differentiallanuvchi va hech qayerda uning hosilasi nolga aylanmasin. Qo'yilgan bu shartlarda funksiya ushbu xossalarga ega:

-  $f(x)$  funksiya  $[a, b]$  oraliqda uzluksiz;

-  $f'(x)$  hosila  $[a, b]$  oraliqda ishorasini o'zgartirmaydi, demak, u shu oraliqda yoki kamayuvchi yoki o'suvchi;

-  $f(x)$  funksiya qiymatlari biror  $[c, d]$  oraliqni bir marta to'la qoplaydi, ya'ni ixtiyoriy har xil  $x_1 \in [a, b]$  va  $x_2 \in [a, b]$  nuqtalar uchun  $[c, d]$  sohadan hosilasi nolga aylanmaydigan bo'lsa, u holda u teskarilanuvchidir va  $x = f^{-1}(y)$  teskari funksiyaning  $y_0 = f(x_0)$  nuqtadagi hosilasi

$$(f^{-1}(y))'_{y=y_0} = \frac{1}{f'(x_0)}$$

kabi aniqlanadi.

**Ispot.** Teorema shartida aytilgan funksiya xossasiga asosan  $f(x)$  funksiyani  $[a, b]$  oraliqda yoki o'suvchi, yoki kamayuvchiligini ta'minlaydi. Demak,  $f(x)$  funksiya shu oraliqda albatta teskarilanuvchi bo'ladi. Aniqlik uchun  $f(x)$  shu oraliqda o'suvchi bo'lsin.

Endi ixtiyoriy  $x_0 \in [a, b]$  nuqtada  $\Delta x = x - x_0$  orttirma tuzsak,  $x = f^{-1}(y)$ ,  $x = f^{-1}(y_0)$  ekanligidan

$$\Delta x = f^{-1}(y) - f^{-1}(y_0)$$

yoki  $\Delta x = \Delta f^{-1}(y_0)$  deb yoza olamiz. Xuddi shuningdek,

$$\Delta y = y - y_0 \leftrightarrow \Delta y = f(x) - f(x_0)$$

kabi yozuv ko'rsatadiki,  $f$  funksiyaning o'suvchi (kamayuvchi) ligiga asosan  $x = x_0$  va  $x \in [a, b]$  bo'lganda  $\Delta y \neq 0$  tengsizlik sharti albatta bajariladi. Demak ushbu nisbat ma'noga ega:

$$\frac{\Delta x}{\Delta y} = \frac{1}{\frac{\Delta y}{\Delta x}}.$$

$x$  nuqtada hosilaga ega bo'lgan  $f$  funksiya orttirmasi  $\Delta x \rightarrow 0$  bo'lganda  $\Delta f(x_0) \rightarrow 0$  shartni, ya'ni  $\Delta y \rightarrow 0$  shartni qanoatlantiradi. Demak, ularni qo'llanib, ushbu tenglikni tuza olamiz:

$$\lim_{\Delta y \rightarrow 0} \frac{\Delta x}{\Delta y} = \frac{1}{\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta f(x_0)}{\Delta x}}.$$

Bunda o'ng tomon maxrajining limiti mavjud va noldan farqli bo'lganligi uchun

$$(f^{-1}(y))' = \frac{1}{f'(x_0)}$$

еканлиги келиб чиқади.

**REFERENCES:**

1. Хайитова Х.Г. Использование эвристического метода при объяснении темы «Непрерывные линейные операторы» по предмету «Функциональный анализ» // Вестник науки и образования. 94:16, 2020. Часть 2. С. 25-28.
2. Хайитова Х.Г. Преимущества использования метода анализа при изучении темы «Непрерывные функции» по предмету «Математический анализ» // Проблемы педагогики, 2021 № 2(53). С. 46-49.
3. Хайитова Х.Г. Использование эвристического метода при объяснении темы «Непрерывные линейные операторы» по предмету «Функциональный анализ» // Вестник науки и образования, 94:16-2 (2020). С. 25-28.
4. Xayitova X. Функция ҳосиласи тушиунчалик амалий тадбиғлари мавзусини ўқиттишида «кичик гурӯҳларда ишилаш» методи // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Xayitova X.G' Sonli funksiyaning asosiy xossalari yordamida yechiladigan ayrim masalalar // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.